


2019 yil yanvar-mart oylarida Samarqand viloyatida sanoat ishlab chiqarishning rivojlanishi



Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2019 yil yanvar-mart oylarida viloyatdagi korxonalar tomonidan 3088,5 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan sanoat ishlab chiqarish indeksi 117,0 % ni tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarish hajmi o'shining asosiy omili bo'lib, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash - 9,0 % ga, ishlab chiqaradigan (qayta ishslash) sanoati - 18,0 % ga o'sishi hisoblandi.

Yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi



Samarqand viloyatida o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan sanoat ishlab chiqarish indeksi

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

109,0 %



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

75,6 %

Ishlab chiqaradigan sanoat

118,0 %



Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash

78,4 %



Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash.

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalarini tomonidan 2019-yilning yanvar-mart oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 14,2 mlrd. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan mahsulotlari hajmining 0,5 % ni tashkil etdi.



CNC nesting machine with uploading and loading


Ishlab chiqaradigan sanoat (qayta ishlash sanoati)

2019 yilning yanvar-mart oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 2946,3 mlrd. so'mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 95,4 % ini tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmog'ining ulushi 0,6 % ni, o'rta-yuqori texnologiyali -29,8 % ni, o'rta-quyi texnologiyali-7,3 % ni va quyi texnologiyali-57,7 % ni tashkil etdi.

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalarini tomonida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 111,6 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 3,6 % ni) tashkil etdi.




Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 16,4 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,5 % ni) tashkil etdi.

Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish.

Tayyor mahsulotlar turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida iste'mol tovarlar ishlab chiqarish hajmi 1582,1 mld. so'mni tashkil etdi va 2018-yil yanvar-mart oylariga nisbatan 2,1 % ga o'sishini ta'minladi, jami sanoatdagi ulushi esa 51,2 % ni tashkil etdi.

2019-yilning yanvar-mart oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish tarkibi va o'sish sur'ati

2018-yil yanvar-mart oylariga nisbatan iste'mol tovarlari tarkibida nooziq-ovqat tovarlari ishlab chiqarish ulushining 61,1 % dan 2019-yil yanvar-mart oyida 61,4 % ga o'sishi kuzatilmoqda.

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida sharob va aroq mahsulotlari va pivo 1,2 % ni (2018-yil yanvar-mart oylarida 2,0 %) tashkil etdi.


Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar mahsulotlarining ishlab chiqarilishi

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 1350,8 mld. so'mlik mahsulot ishlab chiqarildi.

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarining umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 43,7% ni tashkil etdi.

**Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalarning
umumiy sanoat mahsulotlari hajmidagi ulushi, %.**

2018-yil yanvar-mart



2019-yil yanvar-mart




Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar
Viloyatning boshqa korxonalari

Hududlarning sanoat ishlab chiqarishi

Viloyatda sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'pi Samarqand shahri (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmining 43,4 %), Jomboy (20,4 %), Samarqand (6,3 %), Urgut (5,9 %), Bulung'ur (3,7 %) va Tayloq (3,5 %) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

**2019-yil yanvar-mart oylarida hududlar bo'yicha sanoat ishlab chiqarish hajmi
(mlrd.so'm)**




2019-yilning yanvar-mart oylarida Samarqand viloyatining sanoat ishlab chiqarishi

Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning hissasi

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan 1331,6 mldr. so‘mlik mahsulot ishlab chiqarildi.

Hisobot davrida kichik korxonalarining umumiyligi ishlab chiqarishdagi ulushi 43,1 % ni tashkil etdi.

2019-yilning yanvar-mart oylarida hududlar bo‘yicha yirik korxonalar va kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi, %.



Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Bulung'ur tumanida (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 100,0 %), Nurobod (100,0), Qo'shrabot (100,0), Samarqand (99,6), Urgut (96,2) va Oqdaryo (85,4) tumanlarida kuzatildi.

Shu bilan birga, eng kichik ulush, Kattaqo'rg'on shahri (22,4 %), Narpay (16,9) va Jomboy (11,6) tumanlarida kuzatildi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat mahsulotlari ishlabinchi chiqarish

(yirik korxonalar bo'yicha)

Qayta ishlash sanoati

<i>Sanoat mahsulotlari nomi</i>	<i>O'lchov birligi</i>	<i>2019-yil yanvar-mart</i>	<i>O'sish sur'ati, %</i>
Tarkibida ikkita ta'minlovchi element—azot va fosfor bo'lgan mineral yoki kimyoviy o'g'itlar		<i>ming tonna</i> 3,43	79,6 
Aroq		<i>ming l.</i> <i>100% spirit</i> 43,8	15,9 
Uzum vinosi yoki uzum turpini distillash natijasida olingan spirit nastoykalari, konyak spirtidan tashqari		<i>ming l.</i> <i>100% spirit</i> 38,6	39,5 
Uzum vinosi		<i>ming l.</i> 188,7	57,0 
Pivo (pivo ishlab chiqarish chiqindilardan tashqari)		<i>ming l.</i> 1601,0	31,8 
Yumshoq bug'doy va spelta uni		<i>ming tn.</i> 38,3	102,3 

Birinchi navli undan
tayyorlangan bug'doy
noni(buxanka), og'irligi
600 g.



tn. 177,0 96,7 ↓

Tozalangan paxta yog'i
va uning fraksiyalari
(kimyoviy modifikatsiya
qilinganlaridan tashqari)



tn. 3641,0 92,8 ↓

Paxta tolasi



ming tn. 16,0 59,2 ↓

Paxta chigiti



ming tn. 25,2 64,3 ↓

Paxta tiviti (lint)



tn. 1443,0 69,6 ↓

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

Issiqlik elektr markazlari
(IEM) ishlab chiqargan
elektr energiyasi



mln.kVt/s 13,4 150,6 ↑

Bug' va issiq suv (issiqlik
energiyasi)




ming Gkal. 21,8 101,6 ↑

Faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari

Bugungi kunda viloyatda 5314 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 1480 tasi (mavjud korxonalar umumiy soning 27,9 %) Samarqand shahriga, 761 tasi (14,3 %) Urgut tumaniga, 493 tasi (9,3 %) Samarqand tumaniga to'g'ri kelmoqda.

Faoliyat yuritayotgan sanoat korxonalari soni, birlik


(2019-yil 1 aprel holatiga)



2019-yil yanvar-mart oylarida viloyatda 716 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etildi va tashkil etilganlarning eng ko'pi Samarqand shahri (21,6 foiz), Urgut (10,1), Samarqand (9,9 foiz), Tayloq va Ishtixon (8,2 foiz) tumanlariga to'g'ri keladi.

Yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari soni, birlik

(2019-yil 1 aprel holatiga)



2019-yilning yanvar-mart oylarida Samarqand viloyatining sanoat ishlab chiqarishi

Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish Dasturining amalga oshirilishi

Viloyatda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning rivojlanishiga tayyor mahsulotlar, butlovchi qisimlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish Dasturining amalga oshirilishi o'z ta'sirini ko'rsatdi. Mazkur dastur asosida kiritilgan 27 ta loyiha bo'yicha 97,9 mlrd. so'mlik mahsulotlar ishlab chiqarilgan bo'lib, 1,6 mln. AQSh dollari miqdorida mahalliyashtirilgan mahsulotlar eksport qilindi va 248 ta yangi ish o'rirlari yaratildi.

O'tgan yilning mos davri bilan taqqoslaganda 2019 yil yanvar-mart oylarida yangi tashkil etilgan ish o'rirlari soni 7,1 martaga oshdi. Shu bilan birga, 2018 yil yanvar-martga nisbatan mahalliyashtirilgan mahsulotlarni ishlab chiqarish va eksport hajmi pasayishi kuzatildi.

Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni
mahalliyashtirish dasturining asosiy ko'rsatkichlari
(yanvar-mart oylari uchun)

	2018 yil	2019 yil
Loyihalar soni, birlik	33	27
Korxonalar soni, birlik	18	27
Ishlab chiqarish hajmi, mlrd. so'm	163,6	97,9
Eksportga qilingan mahalliyashtirilgan mahsulot majmi, mln. AQSH doll.	2,8	1,6
Yaratilgan yangi ish o'rirlari, birlik	35	248

Sanoat statistikasi bo'limi
E.A.Qo'qonov
Tel: (66) 235-06-80